

Andijon davlat universiteti
Pedagogika fakulteti
BTSTI ta'lim yo'nalishi
II kurs 1 – guruh talabasi
Ahmadjonova Hilolaning
“Bolalar adabiyoti va folklor” fanidan
taqdimoti

Ertaklar – xalq og'zaki ijodining
qadimiy janri.



Ertaklar qadimiy xalq og'zaki me'rosimiz.

*Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang –
barang janrlardan biri **ertakdir**. Xalq tomonidan
yaratilgan ko'plab ertaklarda bolalarning o'ziga
xos hayoti chetlab o'tilmagan. Hatto, turli
yoshdagi bolalar uchun juda ko'p maxsus ertaklar
yaratilgan.*

*Qadimgi kishilarning tasavvurlari natijasida
paydo bo'lgan afsonalarning zamirida dastlabki
ertaklar paydo bo'lgan. Asrlar o'tishi bila,
kishilarning ongi o'sishi, jamiyatdagi voqea-
hodisalar,*

odamlarning o'zaro muolila-munosabatlari
zamidida ertaklar tobora hayotga
yaqinlashtirilgan. Keyinchalik esa aniq maqsad
va yo'nalishlar zamirida ertaklar yaratilgan va
ularning yaratilishidan asosiy maqsad
shunchaki qiziqarli voqealar bayoni emas,
balki maslahat va yo'nalishlar bera olish , ibrat
va namuna ko'rsatishga aylangan.

Mahmud Qoshg'ariy ertaklar haqida
shunday degan: *Ertaklar doston va
afsonalarning qisqargan, mazmunigina
saqlanib qolgan variantlari tarzida ko'rgan.*

Ertaklar mvzu va mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:


- ✓ Hayvonlar haqidagi ertaklar.
- ✓ Xayoli-fantastik ertaklar.
- ✓ Hayotiy-maishiy ertaklar.
- ✓ Hajviy ertaklar.

Hayvonlar haqidagi ertaklar



Hayvonlar haqidagi ertaklar deganda, asosan, to'rt oyoqli hayvonlarni tushunishimiz to'g'ri emas. Chunki, "hayvon" so'zi tirik degan ma'noni anglatadi. Shuning uchun, barcha jonzotlarni hayvon deb atashimiz mumkin. Xalq ertaklarida chumolidan tortib filgacha, xatto undan katta hayvonlar ham ishtirok etadilar. Hayvonlar haqidagi ertaklarda ham boshqa turdagi ertaklar singari inson muammolari bilan bog'liq barcha masalalarni ko'rishimiz mumkin.


Sehrli – fantastik ertaklar.



Sehrli – fantastik ertaklar ming yillar davomida insoniyatning ezgu va shirin hayollari, turli yovuz kuchlarga qarshi olib borgan kutashlari davomidagi xulosalar, ulardan kelib chiqadigan extiyojlarning o'ziga xos yechimi sifatida maydonga kelgan.

Sehrli – fantastik ertaklarning obrazlari tizimi o'ziga xosdir. Unda ijobiy va salbiy xarakterdagi obrazlarni uchratish mumkin. Sehrli ertaklarda pari, yalmog'iz, dev, ajdar kabi fantastik va mifologik obrozlar sistemasi mavjud.

Hayotiy – maishiy ertaklar.



Hayotiy – maishi ertaklarda sehrli voqea va buyimlar ishtirok etadi. Bunday ertaklar jamiyat va yakka shaxslarning kundalik hayot inson umri davomidagi ayrim voqealarni aks ettiradi.

Hayotiy – maishiy ertaklar real hayotiy voqealar asosida qurilgan bo'lganligi uchun ularda fantastika muhim rol o'ynamaydi. Ertak qahramonlari faol yashaydigan kishilar bo'lib, ular o'z aql-zakovatlari, bilim va tajribalarga suyangan holda katta muammolarni hal qiladilar.


Hajviy ertaklar.



Hajviy ertaklarda ijtimoiy hayotdagi barcha salbiy holat va ko'rinishlar inson xarakterlarini ochib beradi. Ijtimoiy hayotdagi barcha ziddiyat va qarama – qarshiliklar bunday ertaklarga asos bo'la oladi. Bunday ertaklarda zolim podisholar, ochko'z amaldorlar, xasis boylar va fahm – farosatsiz kishilar hajv qilinadi.

*Ertaklarda xalq og'zaki
ijodining asosiy xususiyatlari
to'laligicha namoyon bo'ladi.
O'tmishda ham , hozirgi zamonda
ham ertaklar yozma adabiyot
vakillari tomonidan ham
yaratilgan. Demak, ularning
deyarli barchasini og'zaki tarzda
yaratilgan desak bo'ladi.*

Bo'g'irsoq



Bir bor ekan , bir yo'q ekan qadim o'tgan zamonda chol bilan kampir bo'lgan ekan.Kunlarning birida ular bo'g'irsoq pishirib,sovushi uchun deraza tokchasiga qo'yisshibdi.



Bo'g'irsoq esa quyosh nurlarida ko'rini ochib qarasa,qarshisida yam-yashil o'rmanni ko'ribdi. U o'rmonga borishni juda hohlabdi va hech kimga sezdirmay,deraza tokchasidan tushib o'rmonga yo'l olibdi.Bir payt qarsisidan bo'ri chiqib qolib unga qarab: "qayerga ketayapsan" deb so'rab,"men seni yepqo'yaman depdi.Shunda bo'g'irsoq qo'shiq kuylapdi:"men bo'girsoq bo'g'irsoq, surpadagi un-urvoq men bobomdan qochdim men buvimdan qochdin, eshit bo'ri endi bas sendan qochish hech gapmas" deb qochib ketibdi.



Bo'ridan qachib qutilgan bo'g'irsoq ayiqqa duch kelibdi. Ayiq debdi: "hoy to'xta buncha hushbo'ysan men seni yeyman" debti, Bo'g'irsoq yana qo'shiq kuylapti" men..... Eshit ayiq bo'ldi bas sendan qochish hech gapmas" deb qochib qolibdi . Yo'lda unga ayyor tulki duch kelibdi. "Nimcha shirinsan" debdi tulkixon. Bo'g'irsoq qo'rqib ketib tulkiga dedi" meni yemang men sizga qo'shiq aytib beraman"...



Shunda tulki unga dedi” qulog’im yaxshi eshitmaydi , tumshug’imga chiqib ayt ”dedi.Bo’g’irsoq rozi bo’ldi va qo’shig’ini uning tumshug’ida aytishni endigina boshlagan edi, tulki og’zini katta ochib uni yutib yubordi.



Qissadan xissa shuki, kattalarni gapiga quloq solmaslik yomon oqibatlarni olib kelishiga guvohi bo'lishdir.



E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!

